

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MAJIDOVA NOZIMA DILMUROD QIZI

**KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING O'QUV FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH (ingliz tili misolida)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Majidova Nozima Dilmurod qizi

Kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish
(ingliz tili misolida) 3

Маджидова Нозима Дилмурод кизи

Совершенствование учебной деятельности студентов в кредитно-
модульной системе (на примере английского языка) 23

Majidova Nozima Dilmurod kizi

Improving students' educational activities in the credit-module system
(in the example of the english language) 45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of publications 49

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MAJIDOVA NOZIMA DILMUROD QIZI

**KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING O'QUV FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH (ingliz tili misolida)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.Phd/Ped4354 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning www.tdpu.uz hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Shodiyeva Matluba Jo'rayevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Norquziyeva Zebo Kamalovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "____" _____soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-75-87; faks: (99871) 276-80-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "____" _____kuni tarqatildi.

(2023- yil "____" _____dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.N.Mamarajabova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

R.G.Isyanov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

M.E.Mamarajabov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirishning innovatsion texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. YUNESKO va Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha Xalqaro ta'lim konsepsiyasida, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining "Ta'lim va ko'nikmalar kelajagi 2030"¹ loyihasida ta'lim sifatini oshirish, o'quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismi bo'lgan o'quv dasturlarini qayta ishlash va takomillashtirish, kredit soatining ishonchliligi, kredit tizimining tarixi, qo'llanilishini takomillashtirish bo'yicha mamlakatlararo tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ta'lim sifatini xalqaro darajaga ko'tarish, modulli ta'limni yo'lga qo'yish, kasbga tayyorlashni umumiyevropa CEFR malaka talablari asosida rivojlantirish, talabalar o'quv faoliyatini takomillashtirishda integrativ jarayonlar va innovatsion ta'limni tashkil etish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish yo'lga qo'yilgan. Shu bilan bir qatorda, talabalarning xorijiy tilda akademik va texnik muloqotini rivojlantirish, ta'limni tashkil etishda kredit tizimlarini qiyoslash, talabalarning o'quv faoliyatini kredit-modul tizimida takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish, talabalar akademik mobilligini ta'minlash, mustaqil ta'limni kengaytirish, ta'lim mazmuni va sifatini xalqaro darajaga ko'tarishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon ... oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart"²ligi ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada chet tillarini o'qitishda talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son «Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini

¹The future of education and skills: Education 2030:Organisation for Economic Co-operation and Development. Directorate for Education and Skills, Paris, France: OECD, 2018, p.7 (p.21) <http://www.oecd.org/education/2030/oecd-education-2030-position-paper.pdf>

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi nutqidan.<https://iiv.uz/oz/news/prezident-xorijiy-tillarni-organish-boyicha-kelajak-uchun-mustahkam-poydevor-boladigan-yangi-tizimni-yolga-qoyish-vaqti-soati-keldi>

sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 31-dekabrda 824-son Qarori va «Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida»gi Nizom hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda talabalarning o'quv va kasbiy faoliyatini takomillashtirish masalalari B.S.Abdullayeva, L.V.Golish, R.G.Isyanov, N.A.Muslimov, B.Y.Xodiyev, E.S.Yuldashev, Sh.S.Sharipov, F.A.Shirinovalar; o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil etish masalalari A.A.Bo'riboyev, M.U.Hasanova, P.Lutfullayev, Sh.Mustafaqulov va M.Sultonovlar, N.I.Taylakov, B.Sh.Usmonov, R.A.Xabibullayev, V.O'rinov va boshqalar; xorijiy tillarni o'qitish-o'rgatish-o'rganish masalalari N.M.Ahmedova, L.T.Axmedova, L.K.Iliyeva, J.Jalolov, G.T.Maxkamova, D.R.Pulatova, T.K.Sattorov va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)dan A.A.Andreeva, V.V.Belich, A.F.Beryozin, E.N.Bespalya, A.N.Bukina, G.M.Burdenyuk, N.F.Koryakovseva, M.T.Koshanova, T.V.Ledovskaya, I.V.Nikolayuk, A.M.Novikov, M.A.Reunova, S.L.Rubinshteyn, B.E.Starichenko, T.Y.Ternovix, Y.A.Yevseyeva, M.V.Chernikovskaya va boshqalar o'quv faoliyatining turli tomonlari; B.B.Karabayev, E.G.Nikitina, L.N.Novikov, L.N.Sokolova, N.A.Solovyeva, O.E.Solyanik, P.A.Yutsyavichene, N.Y.Shmatkolar modulli, modulli-reytingli va kredit ta'limning turli jihatlari; I.N.Aynutdinova, M.V.Boyko, N.D.Galskova, E.I.Passov, E.N.Solovova, L.G.Vasilyeva, I.A.Zimnyaya, A.N.Shamov, A.N.Shukinlar xorijiy til ta'limining zamonaviy tendensiyalarini ilmiy tadqiq etganlar.

Xorijlik olimlardan Andrejs Rauhvargers va A.Rusakova, G.Crookes va R.W.Schmidt, R.L.Oxford va J.Shearin, T.Tang va M.Austinlar talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish bo'yicha; D.Crosier va J.Maki, K.Hannah, Jessica M.Shedd, O.Regel, I.F.Tsigelny va boshqalar kredit ta'limi to'g'risida ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazganlar; P.Ashwin va b., E.Bravo, Le Mahieu Jacqueline, M.O.Loyko, Suryani, Sherria L.Hoskins, Stephen E.Newstead va boshqalar tomonidan xorijiy tillarni zamonaviy o'qitish masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining PZ-20170923124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatini rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2017-2020-yy.).

Tadqiqot maqsadi kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini statik va dinamik bosqichlarini takomillashtirish;

kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyati modelini takomillashtirish;

talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini autentik materiallar, integrallashgan mashqlar, ESP va motivatsion treninglar asosida rivojlantirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent shahridagi Adju universiteti, Jizzax politexnika instituti va Farg'ona politexnika institutlarining 620 nafar talabari jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirishning shakli, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida mavzuga oid mahalliy va xorijiy pedagogik, psixologik ilmiy manbalar, Davlat ta'lim standarti, o'quv rejalar, dasturlar, darslik va o'quv qo'llanmalarni tanqidiy o'rganish va tahlil qilish, ingliz tili o'qitish jarayonini maqsadli kuzatish, modellashtirish (loyihalash), sotsiometrik (test, suhbat, anketa, intervyu), pedagogik eksperiment, matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari muammoli vaziyatlarda pedagogik muammoni ratsional bartaraf etishga qaratilgan mustaqil o'quv faoliyatini izchil tashkil etishning pedagogik ta'minotini boyitish, o'quv faoliyati ijodiy motivatsiyasini maqsadli shakllantirish hamda xorijiy tilning kommunikativ, adaptiv va modellashtirish darajasini shaxsiy motivlarga frontal moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish samaradorligi mustaqil o'quv faoliyatining pedagogik strukturasi va o'quv faoliyatiga ijobiy motivatsiyaning statik va dinamik bosqichlarini ta'lim maqsadlariga ko'ra shakllantirish hamda til va madaniyat qonuniyatlarini bir butunlikda o'rganishda mustaqil akademik va texnik muloqot vositalaridan effektiv foydalanish va o'z fikrini bayon qilish va izohlash ko'nikmalarini rivojlantirishga muntazam ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari shaxsga yo'naltirilgan, tizimli-integrativ, kommunikativ-faoliyatli va kasbga yo'naltirilgan yondashuvlarning didaktik yaxlitligini ta'minlash, o'quv faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni asoslash hamda xorijiy tilda nutqiy amaliy faoliyat motivatsiyasini avtonom o'quv faoliyati imkoniyatlari bilan maqbul uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish modeli autentik materiallarni o'rganish, integrallashgan mashqlarni bajarishda professional

yoʻnaltirilgan ingliz tilini oʻrganish (ESP: English for Specific Purposes) va “Tedtalk” motivatsion treninglardan effektiv foydalanish hamda individual-tipologik xususiyatlarini oʻquv faoliyati koʻrsatkichlari bilan oʻzaro aloqadorligini intensiv taʼminlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“English for Engineering and Technology” (Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi. №BGU 00644) nomli elektron oʻquv qoʻllanma yaratilgan;

“English” nomli oʻquv qoʻllanma (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2022-yil 30-dekabrda 429-son buyrugʻi asosida berilgan 429-32 raqamli nashr ruxsatnomasi) yaratilgan;

“The Basics of Technical Writing Skills (ESP-English for Specific Purposes)” (Oʻzbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. № BGU 00820) maʼlumotlar bazasi yaratilgan;

kredit-modul tizimida talabalarning oʻquv faoliyatini takomillashtirish boʻyicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qoʻyilganligi, xalqaro miqyosda qoʻllanilgan yondashuvlar, usullar va empirik izlanishlar nazariy asoslab berilganligi; maʼlumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, oʻzaro bir-birini toʻldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qoʻllanilganligi; tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kredit-modul tizimida talabalarning oʻquv faoliyatini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari asoslanganligi, xorijiy til taʼlimi xususiyatlari, xalqaro ilgʻor tajribalar, xorijiy tildan oʻquv-uslubiy taʼminotni yaratish asoslarining ochib berilganligi, mazkur jarayonga taʼsir qiluvchi omillarning aniqlanganligi, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda integrallashgan mashqlar, ESP va “Tedtalk” motivatsion treninglar orqali talabalar oʻquv faoliyatini takomillashtirish baholash mezonlari va koʻrsatkichlarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kredit-modul tizimi sharoitida oliy taʼlim yoʻnalishlarida oʻquv jarayonining rejalashtirilganligi, talabalarning oʻquv faoliyatini statik va dinamik bosqichda takomillashtirish mazmuni va modelining ishlab chiqilganligi, kasbga yoʻnaltirilgan xorijiy til oʻqitish mazmuni va metodik asoslarining tadqiqot natijalari orqali takomillashtirilganligi, ishlab chiqilgan kasbiy-sohaviy va maxsus mashqlardan ingliz tilidan oʻquv qoʻllanma, elektron oʻquv qoʻllanma va oʻquv-uslubiy qoʻllanmalarni yaratishda foydalanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kredit-modul tizimida talabalarning oʻquv faoliyatini takomillashtirish boʻyicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

kredit-modul tizimida talabalarning oʻquv faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari muammoli vaziyatlarda pedagogik muammoni ratsional bartaraf etishga

qaratilgan mustaqil o'quv faoliyatini izchil tashkil etishning pedagogik ta'minotini boyitish, o'quv faoliyati ijodiy motivatsiyasini maqsadli shakllantirish hamda xorijiy tilning kommunikativ, adaptiv va modellashtirish darajasini shaxsiy motivlarga frontal moslashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar "English" nomli o'quv qo'llanma yaratishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 30-dekabrda 429-son buyrug'i asosida berilgan 429-32 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga erishilgan;

kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish samaradorligi mustaqil o'quv faoliyatining pedagogik strukturasi va o'quv faoliyatiga ijobiy motivatsiyaning statik va dinamik bosqichlarini ta'lim maqsadlariga ko'ra shakllantirish hamda til va madaniyat qonuniyatlarini bir butunlikda o'rganishda mustaqil akademik va texnik muloqot vositalaridan effektiv foydalanish va o'z fikrini bayon qilish va izohlash ko'nikmalarini rivojlantirishga muntazam ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid takliflar "English" nomli o'quv qo'llanma yaratishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 30-dekabrda 429-son buyrug'i asosida berilgan 429-32 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada kredit-modul tizimida talabalarning motivatsiyasi va muloqotga kirishuvchanligi oshgan;

kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari shaxsga yo'naltirilgan tizimli-integrativ, kommunikativ-faoliyatli va kasbga yo'naltirilgan yondashuvlarning didaktik yaxlitligini ta'minlash, o'quv faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni asoslash hamda xorijiy tilda nutqiy amaliy faoliyat motivatsiyasini avtonom o'quv faoliyati imkoniyatlari bilan maqbul uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "English" nomli o'quv qo'llanma yaratishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 30-dekabrda 429-son buyrug'i asosida berilgan 429-32 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada xorijiy tili va o'quv faoliyati takomillashgan talabaga erishilgan;

kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish modeli autentik materiallarni o'rganish, integrallashgan mashqlarni bajarishda professional yo'naltirilgan ingliz tilini o'rganish (ESP: English for Specific Purposes) va "Tedtalk" motivatsion treninglardan effektiv foydalanish hamda individual-tipologik xususiyatlarini o'quv faoliyati ko'rsatkichlari bilan o'zaro aloqadorligini intensiv ta'minlash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "English" nomli o'quv qo'llanma yaratishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 30-dekabrda 429-son buyrug'i asosida berilgan 429-32 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada kredit-modul tizimida talabalarning kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga hamda ta'lim samaradorligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 11ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya

Komissiyasi doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan, 2 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda maqola tarzida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi adabiyotlar ro'yxati va ilovalarsiz 132 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti hamda usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi va hajmi borasidagi ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari ko'rib chiqilgan, kredit-modul tizimi bo'yicha xorijiy tajribalar va O'zbekistonda kredit-modul ta'lim tizimi tahlili, kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirishning lingvodidaktik asoslari bayon etilgan.

Mazkur bobda kredit-modul tizimi, modulli ta'lim, modul texnologiyasi, faoliyat, o'quv faoliyati, motivatsiya kabi ilmiy tushunchalarning mohiyati olimlar fikrlarini tahlil qilgan holda ochib berilgan. Masalan, B.Sh.Usmonov va R.A.Xabibullayevlar fikriga ko'ra, kredit ta'lim tizimi o'quv jarayonini tashkil etish shakli bo'lib, talabalarga o'z o'quv trayektoriyalarini muayyan chegarada belgilash imkonini beradi, mustaqil va ijodiy bilim olishni rag'batlantirishga yo'naltiradi, o'zlashtirilgan bilimlar hajmi kreditlarda o'lchanadi. E.G.Nikitina o'zining tadqiqot ishida, “modulli ta'lim – aniq ishlab chiqilgan o'qitish texnologiyasi bo'lib, ta'lim mazmunini tizimlashtirish va mantiqiy tugallangan o'quv birliklari – modullar bilan ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini tashkil etishni, modulni o'zlashtirish orqali talabalar o'zlashtirishi kerak bo'lgan o'quv maqsadlarini, bilim, ko'nikma va malakalarni belgilashni, o'quv materialini o'zlashtirish darajalarini tanlashni va sifatini nazorat qilishni o'z ichiga oladi”, degan ta'rifni beradi.

Kredit-modul tizimi talabalarning ta'limga yangicha munosabatda bo'lishlarini va mustaqil ishlashlarini ta'minlaydi. Ta'limning sifati va samaradorligi talabalarni ushbu jarayonga tayyorlashdan kelib chiqadi. Tadqiqot jarayonida mazkur muammoning turli jihatlari pedagog, psixolog, metodist, lingvist olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilganligi aniqlandi.

Bundan tashqari, kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirishda mavjud to'siqlar: mazkur tizim mohiyatini to'liq tushunib

yetmaslik; talabalarning fanni, o'qituvchini tanlashlarining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi; fan dasturlarining xorijiy tajribaga asoslanmaganligi; o'quv adabiyotlarining kredit-modul tizimi uchun yetarli emasligi; xorijiy til - mutaxassislik fani – ishlab chiqarish korxonalarini integratsiyasining samarali tashkil etilmaganligi va mustaqil ta'limni tashkil etishdagi ba'zi kamchiliklar aniqlangan.

Mazkur muammolarni ratsional bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kredit-modul tizimiga kirish o'quv jarayonini jadallashtiradi, talabalar o'quv faoliyati ijobiy motivatsiyasiga ta'sir etadi va o'qituvchilar ishini sezilarli darajada o'zgartiradi hamda O'zbekiston ta'lim tizimiga xalqaro hamkorlik uchun yo'l ochadi. Tadqiqot ishimizda xorij va O'zbekistonda kredit ta'limini qiyoslash uchun davlatlar miqyosida emas, ular foydalanadigan kredit o'lchovi modelini qiyoslashni maqsad qilib oldik. Kredit-modul tizimi O'zbekiston ta'limi uchun yangi tizim bo'lganligi sababli, biz xorij olimlarining ilmiy ishlarini o'rgandik. Masalan, AQShda kredit birlik tushunchasi Amerikaning mashhur namoyandasi Charlis Eliot, kredit soat/birlik tarixi to'g'risida Raubinger, Rowe, Piper and West, Dietrich Gerhard, oliy ta'limda talaba kredit soati tarixi to'g'risida Jessica M.Shedd, Kreplin Hannah, David Crosier, Jasmin Maki; Amerika ta'limida kredit soatining ishonchliligi, kredit tizimining tarixi, qo'llanilishi va kamchiliklari xususida James M. Heffernan, Igor F. Tsigelny; oliy ta'limda tanlovga asoslangan kredit tizimining tahlili P.S.Aithal, P.M.Suresh Kumar, Omporn Regel va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. Xorij ECTS (European Credit Transfer System/ Yevropa kredit o'tkazish va jamg'arish tizimi)da ingliz tili o'qitish muammolari to'g'risida M.L.Perez Canado, I.Tudor, A.B.Gonzales, J.M.Nieto, Garcia, R.L.Oxford, J.Shearin, T.Tang, M. Austin; xorijiy tillarni zamonaviy o'qitish masalalari yuzasidan K.Fild, M.O.Loyko, Paul Ashwin, David Boud, Sherria L.Hoskins and Stephen E.Newstead, Suryani, Soedarso, Muhibbin, Marsudi; talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish bo'yicha Kenneth Silseth, Ola Erstad va boshqalar ishlarida qimmatli fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirishning lingvodidaktik asoslari bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Masalan, T.Q.Sattorov fikriga ko'ra, "Kimni o'rgatamiz?" – o'quv faoliyati subyektining individual-psixologik sifatlari (xorijiy tilda nutq o'rganish qobiliyati, motivatsiya, "qanday o'qitish" ta'limning metod, usul, shakllari va muallim xususiyatlarini), "nimani o'rgatish"da esa ta'lim obyekti bo'lmish xorijiy tilni kommunikativ, adaptiv va modellashtirish darajasida egallashni nazarda tutadi. Y.I.Passov va boshqalar ishlarida xorijiy til kommunikativ kompetensiyasi mufassal bayon etilgan. I.N.Aynutdinova o'zining ilmiy tadqiqot ishida oliy ta'limda xorijiy tilini o'qitishdagi innovatsion texnologiyalarni yoritgan, B.Y.Xodiyev, L.V.Golishlar kitobida talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usullari va vositalari ko'rsatib o'tilgan, T.Y.Ternovix 1-kurs talabalarining xorijiy til matni bilan ishlashda avtonom o'quv faoliyati ko'nikmalarini shakllantirishga ikki tomonlama (mutaxassislik nemis tili) a) strategiyalarni shakllantirish metodikasi, b) sistemali nazariy jihatdan yondashgan.

Biz yuqoridagi olimlar fikrlarini inobatga olgan holda o'z tadqiqot ishimizda talabani ta'lim jarayonining subyektivi sifatida kiritganmiz. Jumladan, har bir fan o'ziga xos xususiyatga ega. Chunonchi, xorijiy til fanining boshqa fanlardan farqi, uning amaliy yo'naltirilishidir. Nutqiy muammoli vaziyat tilni yetarli darajada o'rganishga sharoit yaratadi va imkoniyat beradi. Ko'nikma va malakalar, ya'ni til va nutq kompetensiyalarini puxta egallash faqat faoliyat orqali ro'yobga chiqadi. Talabani ijodiy faolligiga turtki berish, ya'ni ijodiy motivatsiyani shakllantirish, uni mustaqil ishlashga yo'naltirish, ba'zan qiyin topshiriq va maxsus vazifalarni bajarishning aniq algoritmini berish, nutq faoliyati turlarining leksika, grammatika va fonetika bilan ishlashning turli yo'llarini tavsiya qilish, til va madaniyat qonuniyatlarini bir butunlikda o'rganishda mustaqil akademik va texnik muloqot vositalaridan effektiv foydalanish va o'z fikrini bayon qilish va izohlash ko'nikmalarini rivojlantirishga muntazam ustuvorlik berish pedagoglar oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, "Xorijiy til" o'quv predmetining didaktik maqomi: umumta'lim predmeti, ixtisoslik tili/ mutaxassislik, ikkinchi xorijiy til hisoblanadi. Xorijiy til ta'limining lingvokulturologik asoslariga til va madaniyat qonuniyatlarining bir butunlikda o'rgatilishi misol bo'la oladi. L.K.Iliyeva o'zining ilmiy risolasida quyidagi fikrlarni bayon etgan: "O'quvchi va talaba xorijiy til ta'limi jarayonida madaniyatlararo muloqotning subyektivi bo'lib shakllanib boradi. Bunda o'qituvchining vazifasi ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish, psixologik muhitni yo'lga qo'yish, erkin muloqot qilish, bahsda ishtirok etish va mustaqil o'z fikrini aytish, tanqidiy baholash, maslahat berish va rag'batlantirishdan iborat".

Kredit-modul tizimida xorijiy til o'rgatish-o'rganish xususiyatlarini hisobga olish talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, ularda ijodiy motivatsiyani, faollikni kuchaytiradi va bilim olishga o'zini safarbar qilishga yo'naltiradi hamda ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi. Tadqiqot ishida kredit-modul ta'limi jarayonini tashkil etishda asosiy e'tiborni bugungi kunda dolzarb hisoblangan talabalar akademik va texnik muloqoti hamda kasbiy tayyorgarligi masalasiga yo'naltirganmiz.

Xulosa shuki, an'anaviy ta'lim va kredit-modul ta'limini qiyoslash kredit-modul tizimida xorijiy til ta'limining konseptual holatini aniqlashga imkon beradi. Mazkur ta'limning farqli jihatlarini keltirib o'tamiz: 1. An'anaviy ta'limda o'qituvchi asosiy qoidalar, tushunchalar yuzasidan fikr bayon etadi; barcha o'quv materiallari ko'p hollarda darslik muallifi tomonidan aniqlangan; talabalar tanlovi mavjud emas, qat'iy belgilangan o'quv reja va dasturga ko'ra mashg'ulotlar tashkil etilgan; o'qituvchi doimiy nazoratni olib borgan; mustaqil ta'limga nisbatan auditoriya soati ko'p bo'lgan; grammatika va o'qishga katta e'tibor berilgan, talabalar matn o'qib tarjima qilishga yo'naltirilgan, ta'lim jarayonida o'qituvchining fikri asosiy o'rinda turgan. 2. Kredit-modul ta'limida o'qituvchi aniq maqsad qo'yadi, ta'lim oluvchilar bilan vazifalarni shakllantiradi va taxminiy natijani oldindan ko'ra biladi; o'quv materialini qiyinchiliklar darajasiga ko'ra modullarga bo'linadi; talabalar tomonidan fanni va o'quv materialini tanlash imkoniyati mavjud; o'qituvchi maslahat beruvchi vazifasini amalga oshiradi; auditoriya soatiga nisbatan mustaqil ta'lim soati ko'p; tinglab tushunish va gapirishga, kasbiy-sohaviy mashqlarga asosiy e'tibor qaratiladi; talabalar mustaqil akademik va

texnik muloqot vositalaridan effektiv foydalanishga yo'naltiriladi; talabalarning mustaqil o'z fikrini bayon qilish va izohlash ko'nikmalarini rivojlantirishga muntazam ustuvorlik beriladi.

Fikrimizcha, modulli ta'limda ham pedagogika nazariyasi va amaliyotida qo'llanilgan an'anaviy ta'limning ba'zi metodlari saqlanib qoladi. Ushbu kredit-modul tizimida ular integrallashadi va informatsion texnologiyalar asosida ro'yobga chiqadi. Faollik, mustaqillik va kreativlik o'quv jarayoni qanday tashkil etilishiga bog'liq. Shunga ko'ra, talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish ta'limning mazmuni, shakli, metod va vositalarini rivojlantirishni, shaxsga yo'naltirilgan tizimli-integrativ, kommunikativ-faoliyatli va kasbga yo'naltirilgan yondashuvlarning didaktik yaxlitligini ta'minlashni talab etadi. Kredit-modul tizimida xorijiy til ta'limining konseptual asoslarini yaratish mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashning imkoniyatini oshiradi.


Demak ushbu bobda, kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari muammoli vaziyatlarda pedagogik muammoni ratsional bartaraf etishga qaratilgan mustaqil o'quv faoliyatini izchil tashkil etishning pedagogik ta'minotini boyitish, o'quv faoliyati ijodiy motivatsiyasini maqsadli shakllantirish hamda xorijiy tilning kommunikativ, adaptiv va modellashtirish darajasini shaxsiy motivlarga frontal moslashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning **“Kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatiga ijobiy motivatsiyaning statik va dinamik bosqichlarini ta'lim maqsadlariga ko'ra shakllantirish mazmuni yoritilgan, kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish modeli tavsiflangan, “Tedtalk” motivatsion treninglar, ESP va autentik materiallar asosida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish mufassal bayon etilgan.

Mazkur bobda talabalarning o'quv faoliyatini ikki bosqichda takomillashtirish strukturasi ishlab chiqilgan: 1) statik bosqichda o'quv-uslubiy ta'minot va uning tarkibiy qismlari, 2) dinamik bosqichda ta'lim-tarbiya jarayoni va mustaqil ta'lim (1-rasmga qarang).

Ma'lumki, statika va dinamika barcha sohalarida, jumladan, fizika, tibbiyot, madaniyat, rassomchilik va boshqalarda ishlatiladi. O'rganishlarimiz natijasida shunday xulosaga keldik-ki, mazkur ilmiy-tadqiqot ishida statika - kuch, dinamika - harakatdir. Statik bosqichdagi o'quv-uslubiy ta'minot va uning qismlari ta'lim-tarbiya jarayoniga kuch beradi, dinamik jarayon harakatga keladi. Statika va dinamika talabaning o'quv faoliyatini takomillashtirishning eng samarali yo'llaridandir. Bundan tashqari, statik bosqichda keltirib o'tilgan barcha qismlar talabaga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va hohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini beradi hamda talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasini belgilashga xizmat qiladi. Ushbu rasmda statik va dinamik bosqichdagi barcha qismlarning bir-biri bilan o'zaro aloqasi, ta'siri, uzviyligi va integratsiyasi to'liq ko'rsatilgan bo'lib, mazkur qismlar talabalarni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi va talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirishni ta'minlaydi. Misol uchun, statik boqichdagi eng kichik qism, bu -

matn hisoblanadi. Matn mavzu/modul yoki mashqning hosilasidir. Har qanday matn mazmunida oz bo'lsada talabanning shaxs bo'lib shakllanishi uchun tarbiyaviy-ma'naviy ozuqa mavjud. Dinamik bosqichdagi barcha qismlar ham talabanning juda ko'p xislatlari va xarakterini o'zgartirishga qodir.



1-rasm. Talabalar o'quv faoliyatini takomillashtirish strukturasi

Ma'lumki, o'quv reja va fan dasturlarini jahon standartlariga moslashtirish va tasdiqlash vazifalari qo'yildi. Bu o'z navbatida, barcha fanlardan yangi o'quv-uslubiy ta'minotni yaratishni taqozo etadi. Talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirishni ta'minlaydigan asosiy qismlardan biri – bu o'quv-uslubiy ta'minotdir. O'quv-uslubiy ta'minot o'quv predmeti xususiyati, o'qitish jarayoni xarakteri va pedagogik-didaktik sistemani belgilab beruvchi obyektiv qonuniyatlarga asoslangan konkret nazariya bilan aniqlanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida yozilishicha, “ta'minot – “ta'min” so'zidan olingan bo'lib, kerakli narsalarni muhayyo qilib yetkazib berish, yashash, ishlash uchun zarur narsalarga bo'lgan ehtiyojni qondirish demakdir. Ma'lumki, ta'lim tizimining turli bosqichlarida shu bilan birgalikda, ta'lim-tarbiya jarayonida ko'pgina pedagoglar o'quv-uslubiy ta'minotni o'qitish vositalaridan iborat deb biladilar. Uslubiy ta'minot nafaqat o'qitish vositalarini nazorat qilish bilan cheklanmay, balki turli sohalarda shaxsning o'zini-o'zi anglashi, boshqarishi va rivojlantirishi bilan bir qatorda, kelgusida uning kasbiy-sohaviy tayyorgarligiga ham xizmat qiladi. Kredit-modul tizimida kompleks o'quv-uslubiy ta'minotning maqsadi shaxsni har tomonlama rivojlantirish uchun pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni yaratish, ta'limning insonparvarligi, shaffofligi, ochiqqligi, mustahkamligi, integratsiyasi va sifatini oshirish, ta'lim jarayonini texnologizatsiyalash hamda ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlari rolini kuchaytirishdan iborat. Kredit-modul tizimi uchun ishlab chiqiladigan yangi o'quv-uslubiy ta'minot ochiqqligi, qulayligi, shaffofligi, mustaqil ta'limga asoslanganligi, kasbga yo'naltirilganligi, mehnat bozori talablariga mosligi, chet mamlakatlar ta'lim dasturlari talablariga muvofiqligi va boshqa jihatlari bilan avvalgi mavjud o'quv-uslubiy ta'minotdan farq qiladi. O'quv-uslubiy ta'minotning asosiy tarkibiy qismlariga o'quv fan dasturi va darslarni olib borishda foydalanilayotgan darsliklar hamda o'quv qo'llanmalar kiradi.

Demak, kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish samaradorligi mustaqil o'quv faoliyatining pedagogik strukturasi va o'quv faoliyatiga ijobiy motivatsiyaning statik va dinamik bosqichlarini ta'lim maqsadlariga ko'ra shakllantirish hamda til va madaniyat qonuniyatlarini bir butunlikda o'rganishda mustaqil akademik va texnik muloqot vositalaridan effektiv foydalanish va o'z fikrini bayon qilish va izohlash ko'nikmalarini rivojlantirishga muntazam ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.


Dissertatsiyada talabalar o'quv faoliyatini takomillashtirishning statik bosqichi komponentlariga alohida-alohida to'xtalib o'tilgan va kredit-modul tizimida ularni yangilash xususida fikr yuritilgan. Dasturlar va yangi o'quv adabiyotlarini soddadan murakkablik asosida, talaba trayektoriyasiga va kelgusida talabaning raqobatga chidamli mutaxassis bo'lishiga xizmat qila oladigan darajada tuzish talab etiladi.

Ushbu dissertatsiya ishida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish modeli autentik materiallarni o'rganish, integrallashgan mashqlarni bajarishda professional yo'naltirilgan ingliz tilini o'rganish (ESP: English for Specific Purposes) va "Tedtalk" motivatsion treninglardan effektiv foydalanish hamda individual-tipologik xususiyatlarini o'quv faoliyati ko'rsatkichlari bilan o'zaro aloqadorligini intensiv ta'minlash asosida takomillashtirilgan (2-rasmga qarang).

Mazkur modelda fanning xususiyatlaridan kelib chiqib, maqsad belgilangan bo'lib, kredit-modul tizimida pedagogik shart-sharoitlar, talabaga ta'sir etuvchi omillar, yondashuvlar, prinsiplar, metodlar, vositalar, talabalar o'quv faoliyatining shakli, mazmuni, tuzilishi, mezonlari va daraja ko'rsatkichlari bayon etilgan. Jumladan, ushbu modelda talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirishning yo'llari ko'rsatilgan.

Kredit-modul tizimida statik va dinamik bosqichda xorijiy tildan o'quv materiallarini taqsimlashda I.A.Zimnyayaning "nutq uchun zarur va kifoya" prinsipiga amal qilish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, eng avvalo auditoriyada foydalaniladigan materiallar mazmuniga jiddiy e'tibor qaratiladi, talabalarning mustaqil ishlari yanada sifatli va ahamiyatli bo'lishi ta'minlanadi.

Tadqiqot ishida kredit-modul tizimida pedagogik shart-sharoitlar, talabaga ta'sir etuvchi omillar yoritilgan. Kredit-modul tizimida talabalar o'quv faoliyatini takomillashtirishga shaxsga yo'naltirilgan, tizimli-integrativ, kommunikativ-faoliyatli va kasbga yo'naltirilgan yondashuvlar asos qilib olingan. Modeldagi yondashuvlar ta'lim maqsadi, vazifalarini ro'yobga chiqishiga yordam beradi. Yuqorida ta'kidlanganidek, har doim ta'lim markazida talaba – ta'lim subyekti turadi. Talabani barkamol shaxs sifatida ta'lim berib tarbiyalash pedagoglar oldidagi asosiy vazifa hisoblanadi. Umuman olganda, xorijiy tilni o'rgatish sistemali va tizimli tashkil qilinishi maqsadga muvofiqdir. Har bir yondashuv ta'lim jarayonida o'ziga xos ahamiyatga va alohida o'ringa ega hamda bir-biri bilan o'zaro aloqador. Masalan, xorijiy til ta'limida talaba kommunikativ faoliyat yuritadi, ya'ni tinglaydi, gapiradi, o'qiydi, yozadi va og'zaki va yozma fikr bayon etadi hamda muloqotga kirishadi. Natijada kommunikativ, til va nutq, ijtimoiy-madaniy, kasbiy va boshqa kompetensiyalar rivojlanadi. Ushbu jarayonda integratsiya hodisasi yuzaga keladi. Zero, har bir tanlangan modul, mavzu yoki o'quv materialiga tizimli, uzviylikda yondashilsagina ta'lim samarali bo'ladi.



2-rasm. Kredit-modul tizimida xorijiy til bo'yicha talabalar o'quv faoliyatini takomillashtirish modeli

Mazkur modelda xorijiy til o'rgatishdagi mavjud yondashuvlar o'z navbatida ta'lim jarayonida prinsiplarning zarur va muhimligini taqozo etadi. O'quv faoliyati vositalari – o'quv-uslubiy ta'minotga kiruvchi barcha ta'lim vositalaridan iborat.

Talabalarining o'quv faoliyatini takomillashtirishning shakllaridan hisoblangan talabaning mustaqil ishi auditoriyada o'qituvchi rahbarligida, va auditoriyadan tashqarida mustaqil ta'lim olishi yuzasidan fikr va mulohazalar bayon etilgan. Darhaqiqat, kredit-modul tizimida mavjud o'quv materiallari juda siyiq holga keltiriladi, kundalik hayotiy ehtiyojdan kelib chiqib, mehnat bozori va ish beruvchining talablarini inobatga olgan holda sohaga oid kasbiy mavzular, matnlar hamda zarur sohaviy terminlar tanlanadi. Mazkur tanlangan o'quv materiallari uzviylikni saqlagan holda semestrlar bo'yicha modullarga taqsimlanadi va yangi tuzilgan o'quv adabiyotlarida va dars jarayonida muallimning pedagogik mahorati ostida faol-amaliy metodlar asosida talabalarga taqdim etiladi. Natijada ushbu masalalarni hal qilish orqali ta'lim sifati va samaradorligi oshadi.

Kredit-modul tizimida talabalar o'quv faoliyatining mazmuni va tuzilishi 3 qismga bo'lib o'rganilgan: (1) Mazmun bloki – amaliy, nutqiy, kasbiy va madaniy komponentlar; (2) Axborot bloki – ma'lumotni topish, qayta ishlash, uzatish va o'rganish-o'rgatish; (3) Texnologik blok – motivatsion treninglar, ESP, autentik materiallardan iborat.

Talabalar o'quv faoliyatini takomillashtirish mezonlariga reproduktiv, kasbiy va produktiv tanlandi. Jumladan, talabalarining til va nutq hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsad qilib olindi. Modelda tanlangan mezonlar hamda quyi, o'rta va yuqori darajalar tajriba-sinov ishi jarayonlarida o'z isbotini topdi va samaradorlikka erishildi. Bunda xorijiy tilni o'rgatish-o'rganishni innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan tashkil qilinganligi va ta'lim-tarbiya jarayonini xorijiy tajriba bilan boyitilganligi sababli hamda olingan natijalarga ko'ra, "o'quv faoliyati takomillashgan talaba" degan xulosaga kelindi.

